

**MAKTAB FIZIKA DARSLARIDA “YUKLAMA VA VAZNSIZLIK,,
MAVZUSINI NAMOYISH TAJRIBA ORQALI
TUSHUNTIRISH**

*Nafasova Gulnoza Baxtiyorovna, Xolmanova Amina Nurillo qizi,
Mirzaaxmedova Yulduz Mirzaxid qizi, Qunduzova Dilfuza Mirzaali qizi
Guliston davlat universiteti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab fizika darslarida “yuklama va vaznsizlik,, mavzusini namoyish tajriba orqali tushuntirish metodikasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Jisimning og‘irligi , og‘irlik kuchi , yuklama , vaznsizlik , liftdagi tajriba .

Kirish. Odatda har bir jism uzining uz og‘irligiga ega . Og‘irlik tushunchasini og‘irlik kuchi bilan adashtirib yubormaslik kerak . Yerga tortilishi tufayli jismning tayanchga yoki osmaga ta’sir etadigan kuchi **jismning og‘irligi** deyiladi va P harfi bilan belgilanadi. Formulasi : $P=mg$ (1)

Koptok osmonga otilsa , birozdan so‘ng qaytib tushadi . Yomg‘ir tomchilar va qor uchqunlari ham yerga qarab harakatlanadi . Yuqoriga sakragan odam ham yerga qaytib tushadi . Bunday hodisa barcha jismlarda ro‘y beradi . Buning sababi shundaki yer o‘zidagi barcha jismlarni o‘ziga tortib oladi .

Jismlarni yer o‘ziga tortib turadigan kuchga **og‘irlik kuchi** deyiladi . Og‘irlik kuchi yerdagi barcha jarayonlar va unda yashovchilar uchun muhim ahamiyatga ega . Agar ,og‘irlik kuchi bo‘lmaganda yer sirtini o‘rab turuvchi atmosferani tashkil etgan gazlar kosmik fazoga uchib ketgan bulardi . Atmosfera bo‘lmasa yerda hayot ham bo‘lmas edi .

Yer faqat yuzasida turgan jismni emas ,balki unga tegib turmagan jismalrni ham o‘ziga tortadi . Masalan; qushalar, samolyot, vertolyot va h.k.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yer shuningdek Oyni ham o‘ziga tortadi .Oy ham o‘z navbatida Yerni o‘ziga tortadi , ya‘ni ikki jism orasida o‘zaro ta’sir mavjud .Dengiz va okeanalar suvining kutarilishi va pasayishi Oyning Yerga ko‘rsatadigan ta’siri tufaylidir .

Yerda ikkita jism turgan bulsin . Ulardan birini kutarib kurdingiz . Ikkinchisini kutara olmasangiz “og‘ir ekan “ deysiz . Nega ikkinchisi og‘ir , birinchisi yengil deymiz . Gap shundaki , jismning massasi qancha katta bulsa , uning og‘irlilik kuchi ham shuncha katta bular ekan .Agar jism massasi **m** ma’lum bo‘lsa , unga ta’sir etayotgan og‘irlilik kuchini **F** bilan belgilab ,uni

$$F=mg \quad (2)$$

Formula orqali hisoblab topish mumkin .Bunda **F**-og‘irlilik kuchi , **g=9,81N/kg** ga teng bo‘lib ,yer sirtidagi o‘zagrmas kattalikdir .

Jismning og‘irligi va og‘irlig kuchi tushunchalarini bir- biridan farq qiladigan ikki jihat quyidagilar .Birinchidan , og‘irlilik kuchi -bu jismga ta’sir



1-rasm

Liftdagи jismning α tezlanish bilan pastga harakatlanganda og‘irligi ma ga kamayishi

etayotgan yerning tortishish kuchi , og‘irlilik-bu jismning tayanchga yoki osmonga ko‘rsatayotgan ta’sir kuchi . Ikkinchidan , og‘irlilik kuchi muayyan joyda jismning tik yo‘nalishadigi tezlanishga bog‘liq emas ,ya‘ni o‘zgarmasdir .Og‘irlilik esa jism faqat tinch holatda turganda yoki tik tekis harakatdagina o‘zgarmasdir . Jism tik yo‘nalishda o‘zgaruvchan karakat qilganda og‘irlilik o‘zgaradi .Yuklama va vaznsizlik -bu fizika va

muhandislikda muhim tushunchalar hisoblanadi .Ular ob’ektning harakatini barqarorligini va kuchlar ta’sirini tushunishda asosiy rol o‘ynaydi .

Yuklama (yuk)

Yuklama deganda bir joydan boshqa joyga o‘tkaziladigan fizik miqdor tushuniladi .Yuk turli shakillarda masalan ;og‘irlilik, kuch yoki quvvat sifatida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ifodalanishi mumkin .Yuklama ko‘pincha ob’eyktning harakati yoki yuk tashish jarayonida paydo bo‘ladi . Ko‘pincha qurilish obyektlarida uchratishimiz mumkin.



2-rasm

Liftda tinch holatdagi jismning asl og‘irligi

Dinamometrni yuqori ilgagidan ushlab turib ,unga massasi ***m=100g*** bo’lgan jism osilsa , dinamometr ko’rsatgichi

$$F=P=mg=0,1*9,8N\sim 1N$$

(3)

ga teng bo‘ladi .Agar dinamometrni ***a*** tezlanish bilan yuqoriga tik yo‘nalishda harakatlantirsak , dinamometrning prujinasi kuproq cho‘ziladi .

Prujinaning qo‘shimcha

chuzilishiga va dinomametr ko‘rsatgichining ortishiga sabab , dinamometr ***a*** tezlanish bilan harakatlanganda jismning og‘irligi ***ma*** ga ortadi.



3-rasm

Lift ***a*** tezlanish bilan ko‘tarilganda jismning og‘irligi ***ma*** ga ortadi

tezlanish bilan harakatlanganda jismning og‘irligi ***ma*** ga ortadi.

Bunda jismning og‘irligi quydagiga teng bo‘ladi :

$$P=F+ma \quad \text{yoki} \quad P=mg +ma \quad (4)$$

m massali jism yuqoriga tik yo‘nalishda ***a*** tezlanish bilan harakatlanganda uning og‘irligi ***ma*** ga ortadi. Bu ortish ***yuklama*** deb ataladi .

Hayotimizda yuklamaning namoyon bulishi kup uchratamiz . Masalan tinch holatdagi lift ko‘tarila boshlaganida u ***a*** tezlanish oladi . Bunda uning ichida turgan odam lift poliga odatdagidan ko‘proq kuch bilan bosadi .Liftdagি odam

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

og‘irligining ortishi ma ga teng buladi.

Vaznsizlik

Agar **m** massali jism osilgan dinamometrni **a** tezlanish bilan pastga vertikal bo‘ylab harakatlantirsak, jism og‘irligi **ma** ga kamayadi . Bunda dinamometr prujinasi qisqaradi .Jismning bu paytdagi og‘irligi quyidagicha topiladi :

$$P=F - ma \text{ yoki } P=mg - ma \quad (5)$$

m massali jism pastga tik **a** tezlanish bilan harakatlanganda uning og‘irligi **ma** ga kamayadi .Bu kamayish **vaznsizlik** deb ataladi .

Yuqorida yuklamaga liftning ko‘tarilishini misol qilgan edik .Endi uning davomi tinch holatda turgan lift **a** tezlanish bilan pastga harakatlanayotgan paytda uning ichidagi odam **ma** ga yengillashib qoladi .

Faqat butun olam tortishish kuchalari ta’sirida erkin harakat qilayotgan har qanday jism vaznsizlik holatida bo‘ladi.

Bularga yer atrofida orbita buylab aylanib yurgan kosmik kema , uning ichidagi kosmanavt , kemadan ochiq kosmosga chiqqan kosmanavt , erkin tushish tezlanishi bilan sho‘ng‘iyotgan samolyot vaznsiz holatda bo‘ladi .Vaznsizlik holatida kosmanavt kosmik kema o‘rindig‘ida bosim bermaydi , kema ichida erkin suzib yuradi . Bu holatda kosmonavt ning og‘irligi nolga teng bo‘ladi .

Liftda yuklama va vaznsizlik tajribasi

Kerakli jihozlar ;

1.O‘lchov asbobi (masalan electron tarozi) biz labaratoriya tarozisidan foydalandik .

2.Og‘irlik (masalan kitoblar buyumlar) biz qul soatdan og‘irlilik sifatida foydalandik .

3.Liftdan haydash imkoniyati bo‘lgan joyda dastlabki yoki ikkinchi qavatga boring .

Ishning borishi ;

Dastlabki qavatdagи liftni tinch turgan holatida poliga eliktiron tarozini quyib jism massasini aniqlab olamiz . $m=43.44 \text{ g} \sim 43\text{g}$ (2-rasm) massasi . Endi

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tezlanishni topib olamiz .Biz liftning tezlanishni internetdan topib oldik $\alpha=2\text{m/s}^2$ tezlanish bilan yuqoriga tik kutarilsa ,uning ko'rsatgichi yuqoridagi yuklama formulasidan foydalanib topamiz .Massa $F=P=mg = 0,43 \cdot 9,8\text{N} \sim 4\text{N}$ ga teng

Berilgan

$$m=43\text{g}$$

$$\alpha=2\text{m/s}^2 P=4\text{N}+0,86\text{N} \sim 4,9\text{N}$$

$$F=4\text{N}$$

$$P=?$$

Formulasi

$$P=F+m\alpha$$

Yechilishi

$$m\alpha=0,43 \cdot 2=0,86\text{N}$$

Massasi $m=43\text{g}$ jismning $\alpha=2\text{m/s}^2$ tezlanish bilan yuqoriga kutarilganda og'irlik kuchi 4N ga ortadi . Jismning 2m/s^2 tezlanish olgan paytidagi jismning og'irligi $4,9\text{N}$ (3-rasm) ga teng bo'ladi .

Yuqoridagi masaladan vaznsizlik holatini kurib chiqaylik .

Berilgan

$$m=43\text{g}$$

$$\alpha=2\text{m/s}^2$$

$$g=9,8\text{N} \sim 10\text{N}$$

$$P=?$$

formulasi

$$P=mg-m\alpha$$

$$P=m(g-\alpha)$$

yechilishi

$$P=0,43(10-2)=$$

$$= 3,4\text{N}$$

Jism 2m/s^2 tezlanish bilan pastga harakatlanganda jisimning og'irligi $3,4\text{ N}$ (1-rasm)ga tenglashdi.

Foydalilanigan adabiyotar

1. A.X. YUNUSALIYEV .FIZIKA universal qullanma
2. N.SH.TURDIYEV FIZIKA 6 -SINF (57-58betlar) 2019 yil <<Niso Poligraf>> nashriyoti .
3. Li, Shuguang, et al. "Heat and mass transfer characteristics of Al₂O₃/H₂O and (Al₂O₃+ Ag)/H₂O nanofluids adjacent to a solid sphere: A theoretical study." *Numerical Heat Transfer, Part A: Applications* (2024): 1-19.
4. Nafasova, Gulnoza, and B. S. Abdullayeva. "Development of logical competence of future physics teachers based on steam and smart educational technologies." *Евразийский журнал академических исследований* 3.1 Part 2 (2023): 138-140.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

5. Nafasova, Gulnoza, and EZoza Pardaveva. "BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING MANTIQIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI FIZIKA O'QITISH METODLARI." *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук* 3.4 (2023): 50-53.
6. Abduxaliq o'g'li, Ikramov Jamshid, and Nafasova Gulnoza. "UNIVERSITETDA TALABALARGA FIZIKA FANINING AHAMIYATI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 12.2 (2024): 34-37.
7. NAFASOVA, Gulnoza. "PRAKSEOLOGIK YONDOSHISH KONTEKSTINDA BO 'LAJAK FIZIKA O 'QITUVCHILARINING MANTIQIY KOMPETENTLILIGI SHAKLLANISH TEXNOLOGIYALARI." *News of UzMU journal* 1.1.2 (2024): 163-166.
8. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza. "AXBOROT TIZIMLARIDA ZAMONAVIY FIZIKA." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 12.1 (2024): 240-243.
9. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza, et al. "REAL GAZ XOSSALARINING IDEALLIKDAN CHETGA CHIQISHI VAN-DER-WAALS TENGLAMASINI O'RGANISH." *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM* 5.45 (2024): 49-55.
10. Nafasova, Gulnoza, and B. S. Abdullayeva. "Development of logical competence of future physics teachers based on steam and smart educational technologies." *Евразийский журнал академических исследований* 3.1 Part 2 (2023): 138-140.
11. Abduvahob o'g'li, Baratov Quvonchbek, et al. "KVANT MEXANIKASI VA UNING KUNDALIK HAYOTGA TA'SIRI!." *INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS* 3.31 (2024): 10-12.
12. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza, and Usanboyev Azizbek Furqat o'g'li. "ZAMONAVIY ROBOTOTEXNIKA VA UNING FIZIKAVIY ASOSLARI." *PEDAGOGS* 68.1 (2024): 63-66.
13. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza, and Eshpulatov Ravshan Muxtor og'li. "MUQOBIL ENERGIYA NIMA VA UNIG JAMIYATIMIZGA AHAMIYATI." *PEDAGOGS* 68.1 (2024): 145-147.
14. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza. "FIZIKAGA OID MANTIQIY MASALALAR VA UNING AHAMIYATI." *PEDAGOGS* 68.1 (2024): 74-77.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

15. Nafasova, Gulnoza, and B. Abdullayeva. "FORMING THE SCIENTIFIC AND LOGICAL OUTLOOK OF FUTURE PHYSICS TEACHERS." *Farg'ona davlat universiteti* 1 (2023): 147-147.
16. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza. "NYUTON QONUNLARI, ULARNING FORMULALARI VA AMALIY MISOLLAR." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 12.1 (2024): 260-269.
17. Baxtiyorovna, Nafasova Gulnoza, et al. "KUCHLANISH VA DEFORMATSIYALARING NAZARIY ASOSLARI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 12.1 (2024): 251-259.
18. Baxtiyorovna, Gulnoza Nafasova. "BO 'LAJAK FIZIKA O 'QITUVCHILARIDA MANTIQIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* 5 (2022): 96-97.